

Najmiddin Kubro tavalludining 880 yilligi nishonlandi

Xorazm Ma'mun akademiyasida Shayx Najmiddin Kubro tavalludining 880 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyati saylovchilari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda Najmiddin Kubro tavalludining 880 yilligi keng nishonlanishi haqida ilgari surgan konseptual g'oyalarini hayotga keng tatbiq etilishi va bu anjumanning aynan Najmiddin Kubro tug'ilib o'sgan diyor Xiva shahrida o'tkazilishi muhim bir tarixiy sana va tarixiy voqea bo'ldi.



Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagi "2025-yilda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at, diniy-ma'rifat sohalari atoqli namoyandalarining tavallud sanalarini munosib nishonlash hamda ularning faoliyatini keng nishonlash hamda ularning faoliyatini keng targ'ib etish bo'yicha" 72-F-son farmoyishi asosida tayyorlangan 68-bandli ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning 30-iyun kuni Xorazm Ma'mun akademiyasida Din ishlari bo'yicha qo'mita, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston musulmonlari idorasi hamkorligida diniy-ma'rifiy soha vakillari ishtirokida tasavvuf shayxi, kubraviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro ijodiy faoliyatiga oid respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi.

Anjumanda O'zbekiston Musulmonlar idorasi, O'zbekiston Din ishlari bo'yicha qo'mita, respublikamizning turli hududlaridagi madrasa va oliygohlardan, ilmiy tadqiqot institutlaridan, Xorazm Ma'mun akademiyasidan olimlar, tadqiqotchilar, doktorant va mustaqil izlanuvchilar ishtirok qildilar.

Anjuman davomida Najmiddin Kubro haqida yangi ilmiy ma'lumotlar, manbalar tadqiqi asosidagi eng so'nggi tahlillar mavjud bo'lgan ma'ruzalar tinglandi. Ishtirokchilar bahs-munozaraga boy bo'lgan anjumanda o'zlari qiziqtirgan savollarga javob oldilar.